



GLOBAL IDEOLOGIES AND THEIR IMPACT ON TRADITIONAL MORAL VALUES THROUGH SOCIAL NETWORKS

Farkhod Absattarovich Kadirov
Lecturer at Angren University
Angren, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: global ideologies, social networks, traditional values, cultural globalization, information technologies, national identity.

Received: 20.01.26

Accepted: 21.01.26

Published: 22.01.26

Abstract: This article examines global ideologies, their role in contemporary society, and their influence on traditional moral values through social networks. In the context of globalization, the issues of preserving national identity and protecting cultural values are analyzed. The mechanisms through which global ideologies spread via social networks and their impact on the existing system of values in society are also discussed.

GLOBAL MAFKURALAR VA ULARNING IJTIMOYIY TARMOQLAR ORQALI AN'ANAVIY AXLOQIY QADRIYATLARGA TAS'IRI

Farxod Absattarovich Kadirov
Angren universiteti o'qituvchisi
Angren, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: global mafkuralar, ijtimoiy tarmoqlar, an'anaviy madaniy globallashuv, texnologiyalari, milliy o'zlik.

Annotatsiya: Ushbu maqolada global mafkuralar, ularning zamonaviy jamiyatdagi o'zni va ijtimoiy tarmoqlar orqali an'anaviy axloqiy qadriyatlarga ta'siri yoritilgan. Globallashuv sharoitida milliy o'zlikni saqlash va qadriyatlarni himoya qilish masalalari tahlil qilingan. Global mafkuralarning ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalish mexanizmlari va uning jamiyatdagi mavjud qadriyatlar tizimiga ta'siri bayon etilgan.

ГЛОБАЛЬНЫЕ ИДЕОЛОГИИ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ТРАДИЦИОННЫЕ МОРАЛЬНЫЕ ЦЕННОСТИ ЧЕРЕЗ СОЦИАЛЬНЫЕ СЕТИ

Фарход Абсаттарович Кадиров

Преподаватель Ангреновского университета

Ангрен, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: глобальные идеологии, социальные сети, традиционные ценности, культурная глобализация, информационные технологии, национальная идентичность.

Аннотация: В данной статье рассматриваются глобальные идеологии, их роль в современном обществе и их влияние на традиционные моральные ценности через социальные сети. В контексте глобализации анализируются вопросы сохранения национальной идентичности и защиты культурных ценностей. Также обсуждаются механизмы распространения глобальных идеологий через социальные сети и их влияние на существующую систему ценностей в обществе.

Kirish. XXI asrga kelib globallashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha sohalariga ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Axborot almashinuvida raqamli texnologiyalar va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi nafaqat inson hayotining moddiy, balki ma'naviy-axloqiy hayotiga ham ta'sir ko'rsatmoqda. Bu jarayonda global mafkuralar an'anaviy axloqiy qadriyatlar bilan munosabatlarda turli soxalardagi o'zgarishlarni yuzaga keltirmoqda. Globallashuv sharoitida dunyoning har qanday nuqtasida sodir bo'layotgan voqealar, yangi g'oyalar va qadriyatlar haqidagi ma'lumotlar ijtimoiy tarmoqlar orqali tezkorlik bilan tarqalmoqda. Global mafkura – bu ma'lum bir g'oyaviy, falsafiy, siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy qadriyatlar tizimi bo'lib, u butun dunyo miqyosida tarqalishga intiladi. Zamonaviy dunyoda eng keng tarqalgan global mafkuralarga liberalizm, neoliberalizm, postmodernizm, globalizmni kiritish mumkin. Amerikalik olim F. Fukuyama o'zining “Tarix nihoyasi va oxirgi inson” nomli asarida liberal demokratiya va erkin bozor iqtisodiyotiga asoslangan g'arbcha demokratik qadriyatlar tizimi insoniyat taraqqiyotining so'nggi bosqichi ekanligini ta'kidlaydi [2]. Ammo Hantington o'zining “Sivilizatsiyalar to'qnashuvi” konsepsiyasida madaniy va sivilizatsion farqlarning kuchayishi natijasida dunyoda yangi qarama-qarshiliklar vujudga kelishini bashorat qiladi [3].

Zamonaviy tadqiqotchilar global mafkuralarning quyidagi xususiyatlarini ta'kidlaydilar:

I. Bugungi globallashuv davrida universal qadriyatlar tushunchasi falsafiy, axloqiy va siyosiy muhokamalarda markaziy o'ringa ega bo'lib qoldi. Ular odatda inson huquqlari, erkinlik, adolat, tinchlik va hamkorlik kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Avvalo, universal qadriyatlarni targ'ib qilish jamiyatlar o'rtasida barqarorlikni ta'minlash, inson huquqlarini himoya qilish va global muammolarga yechim topishda muhim o'rin tutadi. Ular insoniyatni birlashtiruvchi

umumiy ma'naviy mezon sifatida xalqaro huquq, siyosiy institutlar va ta'lim tizimlarida asosiy tamoyil bo'lib xizmat qiladi.

Shunga qaramay, qadriyatlarining universalligiga shubha bilan qarash ham mavjud. Har bir madaniyat o'ziga xos tarixiy tajribaga ega bo'lib, qadriyatlar ko'pincha shu kontekstdan kelib chiqadi. Masalan, G'arb sivilizatsiyasida individual erkinlik asosiy qadriyat bo'lsa, Sharq jamiyatlarida jamoaviylik va ijtimoiy mas'uliyat ustuvor sanaladi. Bu holatda "universal" deb e'lon qilingan qadriyatlar ayrim madaniyatlarning tajribasini boshqalarga majburlashga o'xshab qoladi. Universal qadriyatlar ko'pincha G'arb falsafasi va siyosiy tajribasi asosida shakllantiriladi. Ba'zi olimlar bunday qadriyatlarni "g'arb ideologiyasining global ko'rinishi" sifatida baholaydilar. Shuningdek, inson huquqlari kabi qadriyatlarining siyosiy vosita sifatida ishlatilishi ularning haqiqiy ma'naviy mazmunini so'ndirishi mumkin. Universal qadriyatlarni haddan tashqari targ'ib qilish milliy va ma'naviy-axloqiy qadriyatlarining qadrsizlanishiga olib kelishi mumkin. Natijada milliy mentalitet zaiflashib, jahon miqyosida ma'lum bir "standart qadriyatlar" ustunlik qiladi. Bu esa madaniy pluralizmga zid bo'lgan jarayon sifatida ko'rilishi mumkin.

Demak, universal qadriyatlarni targ'ib qilish zarur va foydali bo'lsa-da, ularni mutlaq va biryozlama yondashuv asosida talqin qilish xavflidir. To'g'ri yondashuv plyuralistik yondashuv bo'lib, turli madaniyatlar o'z qadriyatlari asosida umumiylikka hissa qo'shishi va universal qadriyatlar majburiy emas, balki kelishilgan umumiy mezon sifatida qaralishi kerak. Shundagina ular insoniyatni birlashtiruvchi kuch sifatida xizmat qiladi.

II. Milliy chegaralarni e'tiborga olmaslik - Globallashuv davrida milliy chegaralarning ahamiyati tobora o'zgarib bormoqda. Axborot texnologiyalari, turizmning o'sib borishi, migratsiya, iqtisodiy integratsiya va madaniy almashinuv natijasida davlatlar o'rtasidagi chegaralar nisbatan shaffoflashmoqda. Shu jarayon ayrim falsafiy maktablar tomonidan "chegaralarsiz dunyo" g'oyasi sifatida targ'ib qilinmoqda. Biroq bu yondashuvning ijobiy va salbiy jihatlari ham mavjud.

Ijobiy jihatlari.

Kosmopolitizm tamoyili	Immanuil Kant va zamonaviy kosmopolit faylasuflar milliy chegaralarni mutlaq qadriyat sifatida ko'rmaydi, balki butun insoniyatni yagona jamoa deb biladi. Bu tinchlik va hamkorlik uchun asosdir.
Erkin iqtisodiy hamkorlik	milliy chegaralarni e'tiborga olmaslik savdo va investitsiya erkinligini kuchaytirib, xalqlar farovonligiga hissa qo'shadi.
Madaniy integratsiya	chegaralarsiz dunyo xalqlar o'rtasida madaniy boyliklarni erkin almashish imkonini beradi.

Inson huquqlari konsepsiyasi	insonning qadri va huquqlari aynan bir davlat hududi bilan cheklanmasdan, butun insoniyatga tegishli ekanligi ta'kidlanadi.
------------------------------	---

Salbiy jihatlar.

Milliy suverenitetka tahdid	chegaralarning ahamiyatini kamaytirish davlat mustaqilligi va siyosiy boshqaruvni zaiflashtirishi mumkin.
Madaniy identitet yo'qolishi	milliy chegaralar faqat hududiy emas, balki ma'naviy-madaniy to'siq sifatida ham xizmat qiladi. Ularning yo'qolishi milliy qadriyatlarning assimilyatsiyaga uchrashiga olib keladi.
Iqtisodiy nomutanosiblik	katta davlatlar kichik davlatlarni o'z iqtisodiy tizimiga qaram qilib qo'yishi xavfi mavjud.
Xavfsizlik muammolari	chegaralarning shaffofligi terrorizm, noqonuniy migratsiya va jinoyatchilikning oshishiga sabab bo'lishi mumkin.

Milliy chegaralarni e'tiborga olmaslik g'oyasi zamonaviy globallashtirish sharoitida muhim falsafiy mavzudir. U tinchlik, erkinlik va integratsiyaga xizmat qilsa-da, bir vaqtning o'zida milliy suverenitet, milliy mentalitet va xavfsizlikka jiddiy tahdid tug'dirishi mumkin. Shuning uchun to'g'ri yondashuv - chegaralarni inkor etish emas, balki ularni hamkorlik va muloqot asosida qayta talqin qilishdir.

III. Axborot texnologiyalari (AT) - internet, sun'iy intellekt, ijtimoiy tarmoqlar, raqamli platformalar kabi vositalar orqali bilim, madaniyat va qadriyatlarni keng ommaga yetkazish imkonini beradi.

Globaldashuv nazariyalariga ko'ra, axborot texnologiyalari jamiyatlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlab, bilim va axborot almashinuvini jadallashtiruvchi asosiy omil sifatida talqin etiladi.

Kommunikatsiya nazariyasi M. Makklyuening kommunikatsiya nazariyasiga ko'ra, texnologiya axborotni tez va samarali tarzda keng jamoatchilikka yetkazuvchi vosita bo'lib, shu orqali u ijtimoiy ong shakllanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiy-madaniy ta'sir jihatidan, internet va raqamli texnologiyalar global axborot almashinuvi tizimini kengaytirib, insoniyatning ilmiy, diniy hamda madaniy merosini tez va keng miqyosda tarqatish imkonini yaratadi. Bunday jarayon madaniyatlararo muloqotni jadallashtiradi, bilim va qadriyatlar almashinuvini kuchaytiradi hamda ta'lim va ilm-fan sohalarida yangi paradigmalar paydo bo'lishiga turtki beradi [4]. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar ijtimoiy ong shakllanishiga, jamiyatning axborot madaniyati darajasiga va intellektual rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [5].

Biroq, axborotlarning axborot texnologiyalari orqali keng tarqalish bir yoqlama ijobiy emas, balki qator muammolarni ham yuzaga keltiradi, jumladan:

1. Axborotning sifat muammosi internet makonida axborotning tez tarqalishi bilan bir qatorda, ishonchsiz, manipulyativ yoki soxta ma'lumotlarning ko'payishi kuzatilmoqda. Bunday holat jamoatchilik ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ijtimoiy fikrni chalg'itishi va noto'g'ri qarorlar qabul qilinishiga sabab bo'lishi mumkin [6]. Bu jarayon "axborot shovqini" hodisasi orqali ifodalanadi.

2. Madaniy homogenlashuv axborot oqimlari ko'pincha global ommaviy axborot vositalari va yirik transmilliy kompaniyalar tomonidan boshqariladi. Natijada, ularning qadriyatlari va madaniy me'yorlari keng auditoriyaga singdiriladi, bu esa kichik milliy madaniyatlarning o'ziga xosligini yo'qotish xavfini tug'diradi [7]. Bu holat sotsiologiyada "madaniy imperializm" yoki "globallashtirilgan madaniyat" deb talqin qilinadi.

3. Texnologik asorat (axborotga qaramlik) axborotning haddan tashqari ko'pligi insonni tanqidiy fikrlashdan uzoqlashtirib, uni tayyor axborot iste'molchisi sifatida shakllantirishi mumkin [8]. Natijada, inson tafakkuri algoritmik tavsiyalar va ijtimoiy tarmoqlardagi "axborot pufagi" ta'siriga tushadi.

4. Axborot xavfsizligi va shaxsiy hayot muammosi raqamli kommunikatsiya tizimlarining kengayishi bilan bir qatorda, shaxsiy ma'lumotlarning oshkorlashuvi, kiberjinoyatlar va ma'lumotlar manipulyatsiyasi xavfi ortib bormoqda [9]. Bu holat "raqamli xavfsizlik" va "axborot etikasi" masalalarini dolzarb muammo sifatida ilgari suradi.

5. Notekis rivojlanish (raqamli tafovut) texnologik infratuzilma dunyo miqyosida bir xil rivojlanmaganligi sababli, "raqamli tafovut" kuchaymoqda. Rivojlangan davlatlar axborot resurslaridan samarali foydalansa, rivojlanayotgan mamlakatlar bu jarayonda chetda qolmoqda [10]. Natijada, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning yangi shakli vujudga kelmoqda.

Axborot texnologiyalari orqali keng tarqalish hodisasi bir tomondan, ilm-fan, ta'lim, ijtimoiy ong va madaniyatni ommalashtiruvchi progressiv mexanizmdir. Ikkinchi tomondan, u noto'g'ri boshqarilganda axborot manipulyatsiyasi, madaniy asorat va xavfsizlik muammolarini yuzaga keltiradi.

Globallashtirish sharoitida milliy davlatlarning ta'siri susayib, transmilliy korporatsiyalar va xalqaro tashkilotlar ta'siri kuchaymoqda. Professor Bauman aytganidek, "globallashtirish sharoitida hech kim jarayonlarni to'liq nazorat qila olmaydi"[11].

XXI asr boshlarida ijtimoiy tarmoqlar global mafkuralarni tarqatishda asosiy vositalardan biriga aylandi. Kastells ijtimoiy tarmoqlarni "axborot asrining yangi ijtimoiy morfologiyasi" deb atagan edi[12]. 2024 yilga kelib, dunyo aholisining 65% dan ortig'i ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmoqda[13].

Ijtimoiy tarmoqlar global mafkuralarning tarqalishiga quyidagi omillar orqali ko‘maklashadi:

- ma’lumotlar deyarli real vaqtda dunyoning istalgan nuqtasiga yetib borishi mumkin;
- ijtimoiy tarmoqlar orqali global mafkuralar juda katta auditoriyaga yetib boradi;
- ijtimoiy tarmoqlar algoritmlari foydalanuvchilarning qiziqishlariga mos kontentni taklif qiladi, bu esa ma’lum mafkuraviy “axborot pufaklarini” yaratadi[14];
- videolar, rasmlar va infografikalar orqali murakkab g‘oyalarni sodda va ta’sirchan tarzda yetkazish mumkin.

Olimlarning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, Facebook, Instagram, TikTok va Telegram kabi ijtimoiy tarmoqlar milliy chegaralarni kesib o‘tib, global mafkuralarni tarqatishda katta rol o‘ynamoqda[15]. Ayniqsa, yoshlar auditoriyasi uchun ijtimoiy tarmoqlar asosiy axborot manbai hisoblanadi.

Global mafkuralar an’anaviy qadriyatlarga quyidagi mexanizmlar orqali ta’sir ko‘rsatadi:

- global mafkuralar ko‘pincha universal insoniy qadriyatlarni targ‘ib qiladi. Mahalliy an’analarni ikkinchi darajali deb hisoblaydi va qadriyatlarni universallashtirishga intiladi;
- ba’zi global mafkuralar barcha madaniy qadriyatlarning nisbiy ekanligini ta’kidlab, an’anaviy axloqiy qadriyatlar tizimidagi absolyut qadriyatlarni inkor etadi[16];
- global mafkuralar individualizmni rag‘batlantiradi, bu esa jamoaviylikka asoslangan an’anaviy qadriyatlar bilan ziddiyatga kirishi mumkin;
- global biznes tomonidan qo‘llab-quvvatlanadigan iste’mol madaniyati moddiy qadriyatlarni ma’naviy qadriyatlardan ustun qo‘yadi[17] va iste’mol madaniyatini targ‘ib qiladi.

O‘zbekistonda ham ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan g‘arbona qadriyatlar yoshlarning an’anaviy milliy qadriyatlarga munosabatiga ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu jarayonda “oila”, “hurmat”, “mehr-oqibat” kabi axloqiy qadriyatlar “shaxsiy erkinlik”, “o‘zini o‘zi ifodalash” kabi qadriyatlar bilan raqobatga kirishmoqda.

Global mafkuralar va an’anaviy qadriyatlar o‘rtasidagi munosabatlar.

1. Qarshilik modeli. Global mafkuralar va an’anaviy qadriyatlar bir-biriga zid sifatida qaraladi. An’anaviy jamiyat global mafkuralarning ta’siriga qarshilik ko‘rsatadi va o‘z qadriyatlarini saqlashga harakat qiladi. Masalan, individualizm va kollektivizm, ilmiy dunyoqarash va an’anaviy diniy qadriyatlar o‘rtasidagi ziddiyat.

2. Adaptatsiya modeli. An’anaviy jamiyat global mafkuralarning ba’zi elementlarini o‘zlashtiradi, lekin ularni o‘z qadriyatlar tizimiga moslashtiradi.

3. Sintez modeli. Bu modelda global mafkuralar va an’anaviy qadriyatlarning muayyan elementlari birlashtirilgan yangi madaniy shakl yuzaga keladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab jamiyatlarda bu modellar aralash holda namoyon bo'ladi. Masalan, Yaponiya va Janubiy Koreya texnologik modernizatsiyani qabul qilgan holda o'z an'anaviy qadriyatlarini saqlashga muvaffaq bo'lganlar [18].

Ijtimoiy tarmoqlarda milliy o'zlikni saqlash muammolari. R.Murtazayeva tadqiqotlariga ko'ra, O'zbekistonda yoshlar o'rtasida ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanish natijasida milliy qadriyatlarga munosabat o'zgarimoqda. Bu jarayonlarni quyidagi ko'rinishlarda kuzatish mumkin:

- milliy bayramlar, an'analar va urf-odatlarini nishonlash shakllarining o'zgarishi;
- oilaviy munosabatlarga oid qadriyatlarning transformatsiyasi;
- kiyinish madaniyati va tashqi ko'rinishga oid qadriyatlarning o'zgarishi;
- til va muloqot madaniyatida g'arbons elementlarning kuchayishi [19].

Biroq, ayni paytda ijtimoiy tarmoqlar milliy o'zlikni saqlash va rivojlantirish uchun ham imkoniyatlar yaratmoqda. Masalan, milliy madaniyat va qadriyatlarni targ'ib qiluvchi ko'plab sahifalar va kanallar faoliyat ko'rsatmoqda. Bu esa global va milliy qadriyatlar o'rtasida muayyan muvozanatni saqlash imkoniyatini yaratadi.

An'anaviy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, shu bilan birga global rivojlanish tendensiyalaridan ortda qolmaslik uchun quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

1	Milliy g'oya va mafkurani rivojlantirish.	Milliy g'oya va mafkura global mafkuralarga qarshi tura oladigan intellektual asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.
2	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish.	Yoshlarda ijtimoiy tarmoqlardagi axborotni tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish muhimdir.
3	Milliy kontentni rivojlantirish.	Ijtimoiy tarmoqlarda milliy qadriyatlarni zamonaviy shaklda targ'ib qiluvchi kontent yaratish muhimdir.
4	Milliy-mafkuraviy immunitetni shakllantirish.	Jamiyatda yot va zararli g'oyalarga qarshi "milliy-mafkuraviy"ni shakllantirish zarurati mavjud.
5	An'anaviy qadriyatlarni zamonaviy talqin etish.	An'anaviy qadriyatlarni zamonaviy kontekstda qayta talqin etish va ularning dolzarbligini ko'rsatish lozim.
6	Milliy va global qadriyatlar o'rtasida muvozanatni ta'minlash.	Global mafkuralarning ijobiy jihatlarini qabul qilgan holda milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish zarur .

Global mafkuralar ijtimoiy tarmoqlar orqali bir tomondan an'anaviy qadriyatlar tizimining transformatsiyasiga olib kelsa, ikkinchi tomondan milliy o'zlikni saqlash masalasini dolzarblashtirmoqda. Zamonaviy jamiyatda global mafkuralar va an'anaviy qadriyatlar o'rtasidagi munosabatlar murakkab va ko'p qirrali xarakterga ega. Bu jarayonda ijtimoiy tarmoqlar muhim

rol o‘ynab, global mafkuralarni tarqatish va an’anaviy qadriyatlarga ta’sir etish vositasi sifatida amal qilmoqda.

Milliy o‘zlikni saqlash va rivojlantirish uchun zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlardan samarali foydalanish, an’anaviy qadriyatlarni zamonaviy talqin etish va milliy g‘oyani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda an’anaviy qadriyatlar va global mafkuralar o‘rtasida muayyan muvozanatni saqlash, milliy madaniyatning o‘ziga xos jihatlarini saqlagan holda global rivojlanish tendensiyalaridan ortda qolmaslik strategiyasini ishlab chiqish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sorokin, P. (2021). *Globalization and cultural dynamics*. Cambridge University Press.
2. Fukuyama, F. *The End of History and the Last Man*. Free Press. (1992).418 B
3. Хантингтон С. Столкновение цивилизаций и переустройство мирового порядка. - Нью-Йорк: Simon & Schuster, 1996. - 367 с.
4. Кастельс М. Возникновение сетевого общества. — 3-е изд. — Оксфорд: Wiley-Blackwell, 2010. — 658 с.
5. Гидденс Э. Последствия модерности. — Стэнфорд: Stanford University Press, 1990. — 232 с.
6. Кастельс М. Возникновение сетевого общества. — 3-е изд. — Оксфорд: Wiley-Blackwell, 2010. — 658 с.
7. Томлинсон, Дж. *Globalization and Culture*. — Cambridge: Polity Press, 1999. — 248 с.
8. Кэпп, Н. *The Shallows: What the Internet Is Doing to Our Brains*. — Нью-Йорк: W. W. Norton & Company, 2010. — 286 с.
9. Солов, Д. Дж. *The Digital Person: Technology and Privacy in the Information Age*. — Нью-Йорк: New York University Press, 2007. — 360 с.
10. P. Norris, *Digital Divide: Civic Engagement, Information Poverty, and the Internet Worldwide* (Cambridge: Cambridge University Press, 2001), 34–67.
11. Bauman Z. *Globalization: The Human Consequences*. — New York: Columbia University Press, 1998.
12. M. Castells, *The Rise of the Network Society* (3rd ed.; Oxford: Wiley-Blackwell, 2010), 45–67.
13. Kepios & We Are Social. (2024). *Digital 2024 Global Overview Report*. Meltwater / We Are Social. (DataReportal – Global Digital Insights)
14. E. Pariser, *The Filter Bubble: What the Internet Is Hiding from You* (New York: Penguin Press, 2011), 45–78.

15. Alonso, A., & Oiarzabal, P. J. (2023). Social media and migration: Virtual community networks. *Journal of Migration Studies*, 45(3), 278-295.
16. F. Fukuyama, *The End of History and the Last Man* (New York: Free Press, 1992), 210–230.
17. Z. Bauman, *Consuming Life* (Cambridge: Polity Press, 2007), 45–68.
18. Murtazayeva, R. (2022). *Ijtimoiy tarmoqlar va milliy qadriyatlar*. Toshkent: Fan va texnologiya.
19. Urinboyev, R. (2023). Digital technologies and cultural practices in Central Asia. *Central Asian Survey*, 42(1), 78-93.
20. CHANGES IN FAMILY VALUES UNDER THE INFLUENCE OF DIGITAL TECHNOLOGIES: AN ANALYTICAL STUDY BASED ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN. (2025). The Conference Hub, 12-17. <https://theconferencehub.com/index.php/tch/article/view/6>
21. Kadirov, F. A. (2025). THE IMPACT OF PRAGMATISM AND UTILITARIANISM ON MORAL DEVELOPMENT. *FARS International Journal of Education, Social Science & Humanities.*, 13(1), 279-288.